

2023- yil yanvar-noyabr oylari uchun  
dastlabki ma'lumot



## SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-noyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **788,2 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **56,6 mln. AQSH** dollariga yoki **7,7 %** ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **708,4** +10,4 %

(2022- y.: **641,9**)



Saldo

2023- y.: - **113,8** (2022 y.: - **126,7**)



### Eksport

2023- y.: **277,8** +7,9 %

(2022- y.: **257,6**)



Tovarlar: **276,1**



Xizmatlar: **1,7**



### Import

2023- y.: **430,6** +12,1 %

(2022- y.: **384,3**)



Tovarlar: **430,6**



Xizmatlar: -

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **307,0** mln. AQSH dollariga (**4,7 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **481,2** mln. AQSH dollariga (**9,8 %** ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida – **174,2** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)

<p><b>Rossiya</b></p> <p>TSA – 120,4</p> <p>Eksport: 55,0 Import: 65,4</p> <p> 15,3 %</p>	<p><b>XXR</b></p> <p>TSA – 164,7</p> <p>Eksport: 46,8 Import: 117,9</p> <p> 20,9 %</p>	<p><b>Afg‘oniston</b></p> <p>TSA – 142,3</p> <p>Eksport: 142,0 Import: 0,3</p> <p> 18,1 %</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p>TSA – 211,0</p> <p>Eksport: 21,2 Import: 189,8</p> <p> 26,8 %</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p>TSA – 35,0</p> <p>Eksport: 14,7 Import: 20,3</p> <p> 4,4 %</p>
<p><b>Koreya Respublikasi</b></p> <p>TSA – 3,2</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 3,2</p> <p> 0,4 %</p>	<p><b>Litva</b></p> <p>TSA – 8,6</p> <p>Eksport: 0,3 Import: 8,3</p> <p> 1,1 %</p>	<p><b>Fransiya</b></p> <p>TSA – 2,2</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 2,2</p> <p> 0,3%</p>	<p><b>Tojikiston</b></p> <p>TSA – 6,3</p> <p>Eksport: 5,4 Import: 0,9</p> <p> 0,8 %</p>	<p><b>Qirg‘iz Respublikasi</b></p> <p>TSA – 10,4</p> <p>Eksport: 3,8 Import: 6,6</p> <p> 1,3 %</p>

Sirdaryo viloyati jahonning 52 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (**15,3 %**), XXRda (**20,9 %**), Afg'onistonda (**18,1 %**), Qozog'istonda (**26,8 %**), Turkiyada (**4,4 %**) va Koreya Respublikasida (**0,4 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilmoqda.



### TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)



**Afg'oniston – 142,3**



**Turkmaniston – 0,3**



**Eron – 4,7**



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg'oniston, Eron va Turkmaniston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Rossiya</b>	<b>146,6</b>	<b>111,8</b>	<b>120,4</b>
<i>Eksport</i>	39,8	58,3	55,0
<i>Import</i>	106,8	53,5	65,4
<b>XXR</b>	<b>103,2</b>	<b>117,7</b>	<b>164,7</b>
<i>Eksport</i>	44,3	43,3	46,8
<i>Import</i>	58,9	74,4	117,9
<b>Germaniya</b>	<b>25,0</b>	<b>8,6</b>	<b>4,1</b>
<i>Eksport</i>	0,1	1,2	0,2
<i>Import</i>	24,9	7,4	3,9
<b>Qozog'iston</b>	<b>152,0</b>	<b>215,0</b>	<b>211,0</b>
<i>Eksport</i>	18,0	22,7	21,2
<i>Import</i>	134,0	192,3	189,8
<b>Turkiya</b>	<b>22,1</b>	<b>31,8</b>	<b>35,0</b>
<i>Eksport</i>	9,2	18,1	14,7
<i>Import</i>	12,9	13,7	20,3
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>2,3</b>	<b>9,5</b>	<b>3,2</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	2,3	9,5	3,2
<b>Litva</b>	<b>3,0</b>	<b>3,6</b>	<b>8,6</b>
<i>Eksport</i>	-	-	0,3
<i>Import</i>	3,0	3,6	8,3
<b>Fransiya</b>	<b>1,0</b>	<b>1,4</b>	<b>2,2</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	1,0	1,4	2,2



Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
 <b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>4,3</b>	<b>11,6</b>	<b>10,4</b>
<i>Eksport</i>	3,5	3,0	3,8
<i>Import</i>	0,8	8,6	6,6
 <b>Afg'oniston</b>	<b>76,6</b>	<b>109,7</b>	<b>142,3</b>
<i>Eksport</i>	76,6	108,6	142,0
<i>Import</i>	0,0	1,1	0,3
 <b>Belarus</b>	<b>0,9</b>	<b>1,6</b>	<b>1,5</b>
<i>Eksport</i>	0,1	0,6	0,3
<i>Import</i>	0,8	1,0	1,2
 <b>Hindiston</b>	<b>0,7</b>	<b>1,5</b>	<b>13,8</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,7	1,5	13,8
 <b>BAA</b>	<b>0,6</b>	<b>0,3</b>	<b>0,0</b>
<i>Eksport</i>	0,2	0,3	0,0
<i>Import</i>	0,4	0,0	0,0
 <b>Tojikiston</b>	<b>5,0</b>	<b>14,7</b>	<b>6,3</b>
<i>Eksport</i>	4,6	12,7	5,4
<i>Import</i>	0,4	2,0	0,9
 <b>Eron</b>	<b>3,3</b>	<b>5,3</b>	<b>4,7</b>
<i>Eksport</i>	1,6	2,0	3,5
<i>Import</i>	1,7	3,3	1,2
 <b>Buyuk Britaniya</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,2</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,1
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,1
 <b>Italiya</b>	<b>7,7</b>	<b>45,1</b>	<b>5,1</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,5	0,0
<i>Import</i>	7,7	44,6	5,1
 <b>Polsha</b>	<b>1,0</b>	<b>1,8</b>	<b>2,0</b>
<i>Eksport</i>	0,7	0,9	1,0
<i>Import</i>	0,3	0,9	1,0



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-noyabr)

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>788,2</b>	<b>107,7</b>	<b>100,0</b>
Boyovut t.	66,3	128,1	8,4
Guliston t.	15,0	89,5	1,9
Mirzaobod t.	49,0	133,2	6,2
Oqoltin t.	7,9	76,5	1,0
Sardoba t.	13,5	169,4	1,7
Sayxunobod t.	45,4	90,9	5,8
Sirdaryo t.	293,9	110,1	37,3
Xovos t.	35,1	144,4	4,5
Guliston sh.	62,6	84,2	7,9
Shirin sh.	1,5	54,9	0,2
Yangiyer sh.	197,7	104,4	25,1

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari




Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **37,3 %** ulush bilan **293,9** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri **0,2 %** ulush bilan **1,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSH dollarida)



2023- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **44,6 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **5,0 %** ga kamaydi.



Wiloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **18,5 %** ga ko'payib va jami TSA'dagi ulushi **55,4 %** ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, **351,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **87,2** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **264,1** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



### SIRDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)


<p><b>Rossiya</b> TSA – 120,4 Eksport – 55,0 Import – 65,4</p> 	<p><b>Qozog'iston</b> TSA – 211,0 Eksport – 21,2 Import – 189,8</p> 
<p><b>Qirg'iz Respublikasi</b> TSA – 10,4 Eksport – 3,8 Import – 6,6</p> 	<p><b>Belarus</b> TSA – 1,5 Eksport – 0,3 Import – 1,2</p> 
<p><b>Tojikiston</b> TSA – 6,3 Eksport – 5,4 Import – 0,9</p> 	<p><b>Ukraina</b> TSA – 1,1 Eksport – 1,1 Import – 0,0</p> 



Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**15,3 %**), Qozog'iston (**26,8 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**1,3 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

## SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



 Sirdaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **343,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **80,3** mln. AQSH dollari, import hajmi esa **263,0** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




## SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksport hajmi **307,0** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **4,7 %** ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr, ulushi % da)



Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>293,4</b>	<b>307,0</b>	<b>137,6</b>	<b>104,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	137,3	168,7	137,6	122,9	46,8	55,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,1	0,0	3,9 m.	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	12,0	8,3	82,6	69,3	4,1	2,7
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	51,3	0,0	0,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,9	0,0	0,0	7,8	0,3	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	16,3	14,1	3,3 m.	86,8	5,6	4,6
Sanoat tovarlari	94,4	86,2	139,6	91,3	32,2	28,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	8,5	5,7	139,3	67,7	2,9	1,9
Turli xil tayyor buyumlar	22,1	21,7	116,3	98,4	7,5	7,1
Xizmatlar	1,9	1,9	146,2	96,8	0,6	0,6

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,4 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**28,1 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**55,0 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**7,1 %**) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	139 367,7	132,0
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	3,3	1,2
Sabzavotlar va mevalar	29 234,7	104,4
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	23,0	23,4
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	111,6	558,0 m.
Tamaki va tamaki mahsulotlari	7,0	23,3
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	4 839,1	68,6
Qog'oz massasi va makulatura	2 608,1	74,2
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	3 888,6	60,9
Birlamchi shakldagi bo'lmagan plastmassalar	4 431,2	46,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	3 225,3	32,0 m.

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	58 981,3	89,4
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	11 202,7	95,8
Cho'yan va po'lat	743,4	119,4
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	14 764,4	103,5
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	27,6	10,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	5 234,0	77,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	20 672,2	110,3
Har xil tayyor buyumlar	550,7	34,4
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	454,7	80,0

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSH dollarida


2023- yilning yanvar-noyabr oylarida MDH mamlakatlariga **87,2** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **28,4** % ni tashkil etdi.



2023- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **94,0** % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-noyabr, % da)





## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARI BILAN AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-noyabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	58 347,6	54 891,8	135,0	94,0	9	6
Turkiya	18 122,7	14 716,8	167,3	81,2	7	8
XXR	43 331,5	46 792,0	89,0	108,0	15	5
Qozog'iston	22 655,2	21 230,0	116,2	93,7	13	7
Afg'oniston	108 225,1	141 975,3	130,4	131,2	10	2
Qirg'iz Respublikasi	3 036,5	3 757,5	75,6	123,7	16	3
Tojikiston	12 712,9	5 429,9	2,3 m.	42,7	5	11
BAA	273,3	85,6	137,2	31,3	8	14
Pokiston	10 364,9	6 243,8	122,4	60,2	12	9
Niderlandiya	42,6	0,0	188,5	0,0	6	16
Eron	2 025,8	3 473,6	108,6	171,5	14	1
Belarus	634,4	288,8	3,7 m.	45,5	2	10
Polsha	864,2	991,8	125,5	114,8	11	4
Ozarbayjon	1 209,5	269,3	3,3 m.	22,3	4	15
Turkmaniston	829,1	264,8	3,6 m.	31,9	3	13
Buyuk Britaniya	-	98,7	0,0	0,0	17	17
AQSH	208,7	75,8	3,9 m.	36,3	1	12



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-noyabr)

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>307,0</b>	<b>104,7</b>	<b>100,0</b>
Boyovut t.	27,3	125,0	8,9
Guliston t.	13,1	86,6	4,3
Mirzaobod t.	17,2	69,8	5,6
Oqoltin t.	4,6	62,2	1,5
Sardoba t.	3,9	124,9	1,3
Sayxunobod t.	28,8	101,0	9,4
Sirdaryo t.	78,6	95,5	25,6
Xovos t.	8,4	56,6	2,7
Guliston sh.	20,2	92,7	6,6
Shirin sh.	1,0	76,7	0,3
Yangiyer sh.	103,7	143,6	33,8

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri **33,8** % bilan **103,7** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri **0,3** % bilan **1,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-noyabr oylarida **74,8** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **29,2** ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (**10,7** %), Pokiston (**19,7** %), Qozog'iston (**22,8** %), hamda XXR (**21,6** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **29,2 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **4,4** % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **9,5** % ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-noyabr, qiymati)

<p><b>Pomidor</b></p> <p>1 326,9 ming. AQSH dollari</p> <p>934,4 tonna</p> 	<p><b>Karam</b></p> <p>1 482,9 ming. AQSH dollari</p> <p>11 244,8 tonna</p> 	<p><b>Olma</b></p> <p>123,7 ming. AQSH dollari</p> <p>348,7 tonna</p> 	<p><b>Piyoz</b></p> <p>3 607,9 ming. AQSH dollari</p> <p>23 535,1 tonna</p> 
<p><b>Uzum yangi yoki quritilgan</b></p> <p>1 018,7 ming. AQSH dollari</p> <p>1 211,6 tonna</p> 	<p><b>Grek yong'og'i</b></p> <p>183,2 ming. AQSH dollari</p> <p>81,9 tonna</p> 	<p><b>Bodring</b></p> <p>150,5 ming. AQSH dollari</p> <p>200,1 tonna</p> 	<p><b>Limon</b></p> <p>14,6 ming. AQSH dollari</p> <p>18,3 tonna</p> 



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-noyabr)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	6 864,1	3 116,0	10,7
 Pokiston	2 521,8	5 757,8	19,7
 Qozog'iston	46 559,8	6 659,3	22,8
 XXR	8 854,5	6 307,6	21,6
 Afg'oniston	935,1	646,5	2,2
 Belarus	329,1	288,8	1,0
 Tojikiston	1 413,4	577,5	2,0
 Boshqa davlatlar	7 342,9	5 881,2	20,0

\* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-noyabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **22,8** %) tashkil qilmoqda.




## SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi **481,2** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **109,8** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**28,2** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**34,8** %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**14,9** %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **9,8** % ga va **481,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>438,2</b>	<b>481,2</b>	<b>110,4</b>	<b>109,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	187,3	167,5	147,0	89,4	42,7	34,8
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,3	0,0	0,0	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	19,9	15,0	157,9	75,2	4,5	3,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	14,8	36,2	28,4	2,4 m.	3,4	7,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	5,9	8,7	59,6	146,9	1,4	1,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	74,0	71,7	165,9	96,9	16,9	14,9
Sanoat tovarlari	25,7	28,1	100,8	109,5	5,9	5,8
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	100,1	135,9	85,3	135,7	22,9	28,2
Turli xil tayyor buyumlar	10,4	13,4	136,8	128,9	2,3	2,8
Boshqa tovarlar	0,1	4,5	-	0,0	0,0	1,0



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	145 805,9	91,4
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	56,0	16,9
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	8 336,0	71,9
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	7 868,6	80,5
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	3 676,8	50,1
Probka va yog'och-taxtalar	4 658,7	69,7
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	5 630,3	198,0
Ko'mir, koks va briketlar	30 584,2	2,5 m.
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	8 677,8	147,1
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	21,2	89,0
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 246,3	75,8
Birlamchi shakldagi plastmassalar	35 688,9	91,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	9 064,8	111,7
Bo'yaydigan va terini oshlovch moddalar va bo'yoqlar	14 775,6	119,3

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	8 188,0	135,5
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4 428,9	2,1 m.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	4 477,9	198,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	7 652,3	65,0
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	12 457,0	18,6 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	72 998,5	98,3
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	41 539,8	2,5 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	5 551,4	177,7
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	5 235,3	2,4 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	2 314,5	117,6
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	4 951,5	193,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	275,6	43,0



2023- yil yanvar-noyabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **264,1 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **0,6 %** ga ko'paydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)



2023- yil yanvar-noyabr oylarida Sirdaryo viloyati **48** ta davlatlar bilan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Germaniya, Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Fransiya) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



### SIRDARYO VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-noyabr, % da)





## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Germaniya	7 315,9	3 930,8	29,4	53,7	17	15
Rossiya	53 509,9	64 419,6	50,1	122,3	14	8
XXR	74 401,7	117 847,7	126,3	158,4	9	5
Qozog'iston	192 506,8	189 810,2	143,7	98,6	7	10
Turkiya	13 663,0	20 275,6	106,3	148,4	12	6
Koreya Respublikasi	9 464,0	3 160,5	4,2 m.	33,4	3	18
Litva	3 599,6	8 321,0	118,7	2,3 m.	10	3
Fransiya	1384,5	2 211,4	139,5	159,7	8	4
Niderlandiya	2 985,2	1 677,3	48,5	56,2	15	14
Turkmaniston	4 184,3	36,8	63,6	0,9	13	20
Hindiston	1 443,7	13 775,3	2,0 m.	9,5 m.	5	1
Belarus	947,5	1 193,6	128,0	126,0	11	7
Italiya	44 579,0	5 063,6	5,9 m.	11,4	2	19
Buyuk Britaniya	23,3	95,2	44,3	4,0 m.	16	2
Eron	3 314,6	1 215,8	195,7	36,7	6	17
Polsha	904,7	960,0	3,0 m.	106,1	4	9
AQSH	70,6	59,2	26,7	83,8	18	11
Estoniya	260,6	147,3	4,9	56,5	20	13
Avstrya	1 109,2	579,7	9,5	52,3	19	16
Qirg'iz Respublikasi	8 558,7	6 650,4	10,4 m.	77,7	1	12



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-noyabr)

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>481,2</b>	<b>109,8</b>	<b>100,0</b>
Boyovut t.	39,0	130,4	8,1
Guliston t.	1,9	115,6	0,4
Mirzaobod t.	31,8	2,6 m.	6,6
Oqoltin t.	3,3	113,3	0,7
Sardoba t.	9,7	197,7	2,0
Sayxunobod t.	16,6	77,4	3,4
Sirdaryo t.	215,3	116,5	44,7
Xovos t.	26,7	2,8 m.	5,6
Guliston sh.	42,4	80,6	8,8
Shirin sh.	0,5	35,8	0,1
Yangiyer sh.	94,0	80,3	19,6

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



Viloyat import tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **44,7 %** bilan **215,3** mln. AQSH dollarini tashkil qildi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **135,9** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **35,7** % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **28,2** % ni tashkil qildi.



## MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-noyabr)




2023- yil yanvar-noyabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **35,7** mln. AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Sirdaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Fransiya — **1,0** mln. AQSH dollari (**0,7** %), XXR — **70,1** mln. AQSH dollari (**51,6** %) va Turkiya – **14,0** mln. AQSH dollari (**10,3** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **28,1** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,5** % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **5,8** % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

9,9 mln. AQSH doll.  
ulushi – 35,4 %



Rossiya Federasiyasi

8,1 mln. AQSH doll.  
ulushi – 28,9 %



XXR

6,1 mln. AQSH doll.  
ulushi – 21,6 %



Qozog'iston



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (**7,7** mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**4,4** mln. AQSH dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (**4,8** mln. AQSH dollari), rangli metal (**0,6** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.